



FAN, TA'LIM VA AMALIYOT INTEGRATSIYASI

ISSN: 2181-1776

Safarova Mohidil Axmadovna¹

Qashqadaryo viloyat xalq ta'limi xodimlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini
oshirish hududiy markazi Maktabgacha, boshlang'ich va maxsus ta'lim
kafedrasи o'qituvchisi
e-mail: S.Mokhidil93A@gmail.com

TALABALARDA KREATIVLIK SIFATLARINI RIVOJLANTIRISH IMKONIYATLARI VA ULARNING TARKIBIY ASOSLARI

Annotatsiya. Maqolada bo'lajak mutaxassislarda kreativlik sifatlarini rivojlanterish imkoniyatlari va tarkibiy qismlari haqida bat afsil bayon etilgan. Shu bilan birga bo'lajak mutaxassislarda kreativlik sifatlarini rivojlanterish bosqichlari, omillari ham yoritilgan.

Tayanch so'zlar: kreativ, kreativlik, ijodiy faoliyat, amaliy kreativ fikrlash ko'nikmalari, xalqaro standartlar, integratsiyalashuv.

ВОЗМОЖНОСТИ ДЛЯ РАЗВИТИЯ ТВОРЧЕСКИХ КАЧЕСТВ УЧАЩИХСЯ И ИХ СТРУКТУРНАЯ ОСНОВА

Аннотация. В статье подробно описаны возможности и составляющие развития творческих качеств будущих специалистов. Также освещены этапы и факторы развития творческих качеств будущих специалистов.



Ключевые слова: творчество, творчество, творческая деятельность, практические навыки творческого мышления, международные стандарты, интеграция.

OPPORTUNITIES FOR THE DEVELOPMENT OF CREATIVE QUALITIES IN STUDENTS AND THEIR STRUCTURAL BASIS

Annotation. The article details the opportunities and components of developing creative qualities in future professionals. It also covers the stages and factors of developing creative qualities in future professionals.

Keywords: creativity, creativity, creative activity, practical creative thinking skills, international standards, integration.

Kirish (Introduction). Jahondagi globallashuv va ta'limning integratsiyalashuvi jarayonlarida bo'lajak mutaxassislarning kasbiy tayyorgarligini rivojlantirish masalasi dolzarb vazifalardan biri sifatida belgilanmoqda. O'zbekistonda kadrlar tayyorlashning sifat darajasini oshirish, xalqaro standartlar asosida malakali mutaxassislar tayyorlash uchun zarur shart-sharoitlarni yaratish, har bir oliy ta'lim muassasasida o'quv jarayoniga xalqaro ta'lim standartlariga asoslangan ilg'or pedagogik texnologiyalar, o'quv dasturlari va o'quv-uslubiy materiallarini keng joriy qilish, talabalar, ilmiy-pedagog kadrlarni zamonaviy kasbiy bilimlari va kreativlik qobiliyatlarini rivojlantirish masalalari Harakatlar strategiyasining ustuvor yo'nalishlariga muvofiq oliy ta'lim darajasini sifat jihatidan oshirish va tubdan takomillashtirishning asosiy vazifalari sifatida belgilandi. Bugungi kunda jahonda ta'limga kompetentli yondashuv asosida bitiruvchilarning raqobatbardoshligini oshirish, pedagog kadrlarning kreativ kompetentligini rivojlantirish orqali ijodiy ta'lim jarayonini loyhalashtirishning zamonaviy metodik ta'minotini yaratish, talabalarda kasbiy faoliyat sohalariga yo'naltirilgan kreativlik qobiliyatlarini rivojlantirish, shuningdek oliy ta'limning ta'lim sifatini ta'minlash jarayonidagi ijtimoiy rolini oshirish masalalari dolzarb yo'nalishlardan biri sifatida tadqiq etilmoqda. Ana shu nuqtai-nazardan ilg'or xorijiy tajribalar asosida zamonaviy kasbiy ta'lim mazmunini modernizatsiyalash, innovatsion ta'lim



muhitini shakllantirish, interfaol o‘qitish metodlari va texnologiyalarini amaliyotga keng tatbiq etish asosida talabalarda kreativlik qobiliyatlarini rivojlantirishning pedagogik mexanizmlarini yanada takomillashtirish muhim o‘rin tutadi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili (Literature review).

Pedagog olimlardan O.Jamoliddinova, O.Musurmonova, M.Urazova, N.Egamberdiyeva, E.Yuzlikayeva, Sh.Sharipov, Sh.Shodmonovalarning ilmiy izlanishlarida talabalarda kreativlik qibiliyatlarini rivojlantirishning bo‘lajak mutaxassislarni kasbiy-innovatsion tayyorgarligini shakllantirishdagi o‘ziga xos jihatlari, kreativlik sifatlarini rivojlantirishga ta’sir etuvchi ijtimoiy omillar, shaxsning faolligi, shuningdek, talabalarda tanqidiy, kreativ tafakkurni shakllantirish yo‘llari va shakllari, mavjud pedagogik shart-sharoitlari, didaktik ta’minoti, shuningdek pedagogik kreativlik mazmuni yoritib berilgan. Innovatsion ta’lim va axborot-kommunikatsiya texnologiyalari vositasida talabalarda o‘z-o‘zini ijodiy faolashtirish, kreativ ishlanmalar(mahsulotlar)ni yaratishga xizmat qiluvchi shaxsga yo‘naltirilgan erkin ta’lim muhitini tashkil etish A.Abduqodirov, N.Azizzodjayeva, U.Begimqulov, J.Yo‘ldoshev, Y.Kruglova, I.Ridanova, V.Slastenin, N.Sayidahmedov, O.Tolipov, G.Chijakova, B.Xodjayevlarning ilmiy tadqiqotlarida asoslangan. Pedagog olimlar tomonidan talabalarning kasbiy tayyorgarligini shakllantirish, o‘qitish samaradorligini oshirishda innovatsion ta’lim texnologiyalaridan foydalanish muammosi bilan bog‘liqlikda ilmiy izlanishlar olib borilgan bo‘lsa-da, talabalarda kreativlik qibiliyatlarini rivojlantirishning pedagogik-psixologik aspektlari va omillarini tadqiq etish, interfaol ta’lim texnologiyalari va metodlari vositasida talabalarda kreativlik qibiliyatlarini rivojlantirishning pedagogik mexanizmlarini takomillashtirish, ijodiy yo‘naltirilgan ta’lim dasturlarini ishlab chiqish, talabalarda kreativlik potensialining rivojlanganlik darajasini aniqlash dolzarb ilmiy-nazariy va amaliy ahamiyatga ega masalalardan sanaladi.

Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology).

So‘nggi yillarda yetakchi xorijiy mamlakatlarning ta’lim tizimida o‘quvchi va talabalarda kreativlik sifatlarini shakllantirish masalasiga alohida, jiddiy e’tibor



qaratilmoqda. Buni Bronson, Merriyman (2010 y.), Ken Robinson (2007 y.), Fisher, Frey (2008 y.), Begetto, Kaufman (2013 y.), Ali (2011 y.), Treffinger (2008 y.) va b. tomonidan olib borilgan ko‘plab tadqiqotlar, ularning natijalarian ko‘rish mumkin.

Patti Drapeau nuqtai nazariga ko‘ra kreativ fikrlash, eng avvalo, muayyan masala yuzasidan har tomonlama fikrlash sanaladi. Har tomonlama fikrlash talabalardan o‘quv topshirig‘i, masalasi va vazifalarini bajarishda ko‘plab g‘oyalarga tayanishni talab etadi. Bundan farqli ravishda bir tomonlama fikrlash esa birgina to‘g‘ri g‘oyaga asoslanishni ifodalaydi. Mushohada yuritishda masala yuzasidan bir va ko‘p tomonlama fikrlashdan birini inkor etib bo‘lmaydi. Binobarin, bir va har tomonlama fikrlash kreativlikni shakllantirishda birdek ahamiyat kasb etadi. YA’ni, topshiriqni bajarish, masalani yechishda talaba yechimning bir necha variantini izlaydi (ko‘p tomonlama fikrlash), keyin esa eng maqbul natijani kafolatlovchi birgina to‘g‘ri yechimda to‘xtaladi (bir tomonlama fikrlash). Patti Drapeau “Agarchi o‘zingizni kreativ emasman deb hisoblasangizda, hozirdanoq kreativ tafakkurni rivojlantirishga qaratilgan darslarni tashkil eta boshlashingizni maslahat beraman. Aslida, gap sizning ijodkor va kreativ bo‘lganingiz yoki bo‘limganingizda emas, balki darslarni kreativlik ruhida tashkil etishingiz va yangi g‘oyalarni amalda sinashga intilishingizdadir”, - deb ta’kidlaydi [2].

Ken Robinsonning fikriga ko‘ra, “kreativlik – o‘z qiymatiga ega original g‘oyalar majmui” sanaladi. Gardner esa o‘z tadqiqotlarida tushunchani shunday izohlaydi: “kreativlik – shaxs tomonidan amalga oshiriladigan amaliy harakat bo‘lib, u o‘zida muayyan yangilikni aks ettirishi va ma’lum amaliy qiymatga ega bo‘lishi lozim”.

Yuqorida bildirilgan fikrlarga tayangan holda “kreativlik” tushunchasini quyidagicha sharhlash mumkin: kreativlik (lot., ing. “create” – yaratish, “creative” – yaratuvchi, ijodkor) – individning yangi g‘oyalarni ishlab chiqarishga tayyorlikni tavsiflovchi va mustaqil omil sifatida iqtidorlilikning tarkibiga kiruvchi ijodiy qobiliyatি



E.P.Torrens fikricha, “kreativlik” tushunchasi negizida quyidagilar yoritiladi

[1]:

- muammoni yoki ilmiy farazlarni ilgari surish;
- farazni tekshirish va o‘zgartirish;
- qaror natijalarini shakllantirish asosida muammoni aniqlash;
- muammo yechimini topishda bilim va amaliy harakatlarning o‘zaro qarama-qarshiligiga nisbatan ta’sirchanlik.

Aytib o‘tilganidek, barcha shaxslarda bo‘lgani kabi pedagoglarda ham kreativlik sifatlari o‘z-o‘zidan rivojlanmaydi. Shunga ko‘ra tadqiqotlarda shaxs (jumladan, pedagoglar)da kreativlik sifatlarini muvaffaqiyatli rivojlantirishning bir qator yo‘llari yoritiladi. Patti Drepeau tomonidan ham shaxs (jumladan, pedagoglar)da kreativlik sifatlarini muvaffaqiyatli rivojlantirishning to‘rtta yo‘li ko‘rsatilgan:

Kreativ fikrlash ko‘nikmasini shakllantirish.

Amaliy kreativ harakat ko‘nikmalarini rivojlantirish.

Kreativ faoliyat jarayonlarni tashkil etish.

Kreativ mahsulot (ishlanma)lardan foydalanish.

Quyida mazkur yo‘llarning mohiyati xususida so‘z yuritiladi.

1-yo‘l: kreativ fikrlash ko‘nikmasini shakllantirish. Bunda asosiy urg‘u kreativ fikrlash ko‘nikmalarini shakllantirish asosiy e’tibor markazida bo‘lib, ta’lim oluvchilar fe’llar yordamida kreativ xarakterdagи harakatlarning mohiyatini ifodalashga yo‘naltiriladi. Xususan, o‘qituvchilar kreativ fikrlash ko‘nikmasini samarali shakllantirish maqsadida ta’lim oluvchilarga ularni fikrlashga undovchi savollar tarkibida zarur fe’llarning bo‘lishiga e’tibor qaratiladi. Bu holat misollar bilan tushuntirilsa, ta’lim oluvchilardan “yurak va qon aylanish tizimi o‘rtasidagi bog‘liqlikni ta’riflab bering” mazmunidagi nazorat savoli ularda kreativlikni shakllantirmaydi. Zero, savol tarkibidagi “ta’riflab bering” tushunchasi o‘z mohiyatiga ko‘ra “mavjud bilimlaringizni birma-bir aytib o‘ting” deyish bilan teng. Nazorat savollarini berishda ta’lim oluvchilarni fikrlashga undovchi so‘z (fe’l)lardan foydalanish ularning kreativ fikrlashlarini osonlashtiradi. Shu sababli



shaxsda kreativ sifatlarni shakllantirishning birinchi yo‘liga ko‘ra pedagoglar turli, antiqa, noan’anaviy hamda puxta javobni berishga majbur qiluvchi so‘z (fe’l)lardan foyalanishlari maqsadga muvofiqdir. M: “bog‘liqlikni toping”, “yarating”, “bashorat qiling”, “fikrni mantiqan bayon eting”, “tasavvur qiling” kabi so‘z (fe’l)lardan foydalanish amaliy jihatdan samarali sanaladi. Agarda pedagog ta’lim oluvchilardan “yurak va qon aylanish tizimi o‘rtasidagi bog‘liqlikni ta’riflab berish”ni talab qilish o‘rniga, “yurak va qon aylanish tizimi o‘rtasidagi bog‘liqlikning barcha turlarini keltirish”ni so‘rashi lozim. Natijada ta’lim oluvchilar ham mavjud bilimlarni umumlashtirish, ham yangi fikr va g‘oyalarni ilgari surish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Pedagoglar birinchi yo‘lni qo‘llash – ta’lim oluvchilarda kreativlik ko‘nikmasini shakllantirishda yosh o‘qituvchilarning “Kreativlik xaritasi”dan foydalanishlari maqsadga muvofiqdir.

2-yo‘l: amaliy kreativ fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirish. Pedagoglar ta’lim oluvchilarda kreativ fikrlash ko‘nikmalarini shakllantirish va rivojlantirishda ko‘rsatmali metod va usullardan foydalanadi. Bu o‘rinda savollardan foydalanish faqat qisqa muddatda yordam berishi mumkin, biroq, ta’lim oluvchilarda interfaollik va kirishimlilikni rivojlantirmaydi. Patti Drapeau o‘z asarida bir qator ta’lim oluvchilarda interfaollik va kreativ fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirishda samarali bo‘lgan yo‘l va metodlarni keltirib o‘tadi. Xususan: - Veb-saytlar bilan ishslash; - vizuallashtirish; - barcha nuqtai nazarlarni inobatga olish; - muhim g‘oyalarni turli vaziyatlarda va o‘rinli qo‘llash (g‘oyani boshqa sharoitga ko‘chirish – transformatsiya); - ramziylashtirish kabi yo‘llar; - “Aqliy hujum”; - “Keys-stadi” kabi metodlar.

3-yo‘l: kreativ faoliyat jarayonlarni tashkil etish. Mazkur yo‘l ta’lim oluvchilarni muammoni yechish va innovatsion g‘oyalarni ilgari surish jarayonida kreativ, ijodiy fikrlashga urg‘u beradi. Mazkur jarayonlarda kreativ metod va usullar faol qo‘llanilmasa-da, kreativ fikrlash yuz beradi. Topshiriqni bajarár ekan, ta’lim oluvchilar odamning qon aylanishi tizimi bilan bog‘liq turli muammolarni tahlil qiladi. Natijada ushbu jarayonda ko‘p tomonlama fikrlash, mushohada yuritish ro‘y beradi.



4-yo‘l: kreativ mahsulot (ishlanma)lardan foydalanish. Bu yo‘lni tutishda pedagog ta’lim oluvchilarga Power Point dasturi yoki multimediya yordamida taqdimotni yaratish topshirig‘ini berishi mumkin. Taqdimotni tayyorlash jarayonida ta’lim oluvchilarda kreativ fikrlash ko‘nikmalari faol rivojlanadi. Ta’lim oluvchilar o‘zlarining kreativ fikrlash qobiliyatlarini qulay muhitda to‘la namoyon qilishlari mumkin. Agar ta’lim oluvchilarda muvaffaqiyatsizlikka uchrash qo‘rquv hissi mavjud bo‘lsa, fikrni noto‘g‘ri ifodalashdan hadiksirasalar, tanqidga uchrasalar bunday vaziyatda ularda kreativ fikrlash ko‘nikmalarini samarali shakllantirish yoki rivojlantirish mumkin bo‘lmaydi. Ta’lim oluvchilarda kreativlikni odatga aylantirish orqaligina kreativ fikrlash ko‘nikmasini muvaffaqiyatli shakllantirish mumkin. Bu jarayonda ular tomonidan mavzu mazmunining puxta anglanishi va kreativ fikrlash ko‘nikmalarini baholashda qo‘llaniladigan metod va vositalar muhim ahamiyat kasb etadi.

Muayyan omillar pedagoglarda kreativlik sifatlari, malakalarini rivojlantirishga to‘sinqlik qiladi. Shu sababli pedagogik jarayonda o‘qituvchilar ushbu omillarni bartaraf etishga e’tibor qaratishlari lozim. Quyidagi omillar shaxsda kreativlikni rivojlantirishga to‘sinqlik qiladi:

- 1) o‘zini tavakkaldan olib qochish;
- 2) fikrlash va xatti-harakatlarda qo‘polikka yo‘l qo‘yish;
- 3) shaxs fantaziyasini va tasavvurining yuqori baholanmasligi;
- 4) boshqalarga tobe bo‘lish;
- 5) har qanday holatda ham faqat yutuqni o‘ylash.

Pedagogning kreativlik potensiali uning umumiy xususiyati sifatida aks etadi. U ijodiy faoliyatning dastlabki sharti va natijasi sanaladi. Mazkur sifat shaxsning o‘z-o‘zini namoyon qilish layoqatiga egalikni va tayyorlikni ifodalaydi. Qolaversa, kreativ potensial negizada har bir mutaxassisning shaxsiy qobiliyatlari, tabiiy va ijtimoiy quvvati yaxlit holda namoyon bo‘ladi. Kreativ potensial bilish jarayoniga yo‘naltirilgan ijodkorlik bilan chambarchas bog‘liq. Pedagogning kreativ potensiali an’anaviy tafakkur yuritishdan farqli ravishda quyidagilarda namoyon bo‘ladi:

- tafakkurning tezkorligi va egiluvchanligi;



- yangi g‘oyalarni yaratish qobiliyati;
- bir qolipda fikrlamaslik;
- o‘ziga xoslik;
- tashabbuskorlik;
- noaniqlikka toqat qilish.

Pedagog kreativlik potensialiga ega bo‘lishi uchun kasbiy faoliyatida quyidagilarga e’tiborini qaratishi zarur:

- kasbiy faoliyatiga ijodiy yondashish;
- yangi-yangi g‘oyalarni yaratishda faollik ko‘rsatish;
- ilg‘or pedagogik yutuq va tajribalarni mustaqil o‘rganish;
- hamkasblar bilan pedagogik yutuqlar xususida fikr almashish.

Har bir pedagogning o‘zini o‘zi rivojlantirishi va o‘zini o‘zi namoyon eta olishi bevosita uning kreativlik qobiliyatiga egaligi bilan bog‘liq. Odatda pedagoglarning kreativlik qobiliyatiga ega bo‘lishlari pedagogik muammolarni hal qilishga intilish, ilmiy-tadqiqot ishlari yoki ilmiy loyihalarni amalga oshirish va o‘zaro ijodiy hamkorlikka erishishlari orqali ta’minlanadi.

Kreativlik potensialiga ega pedagog o‘zida quyidagi malakalarini namoyon eta oladi:

- bajariladigan vazifaning mohiyati va ahamiyatini belgilay bilish;
- masalaning qo‘yilishini tahlil qila olish;
- masalani hal qilish rejasini tuzish;
- masalani hal qilishda samarali metodlar (analiz, sintez, induksiya, deduksiya, taqqoslash va b.)larni qo‘llash;
- masalani hal qilish usullarini tanlay olish;
- qabul qilingan qarorning to‘g‘riligini asoslash va qayta tekshirish;
- masalani hal qilishda kichik tadqiqot (izlanish)ni olib borish;
- masalani hal qilish sharoiti, jarayonning borishi va masala yechimi yakunlarini umumlashtirishga oid dalillarni rasmiylashtirish.

Kreativ shaxsning shakllanish bosqichlari:



1-bosqich: Pedagogik, psixologiya, falsafa, estetika kabi fanlar (turkum fanlar)ning nazariy-metodologik asoslarini o‘zlashtirish.

2-bosqich: O‘zlashtirilgan nazariy bilimlarni uzlukli va uzlucksiz pedagogik amaliyat davrida, shuningdek, amaliy mashg‘ulotlar va mustaqil ta’lim jarayonida amaliyotga tadbiq etish ko‘nikmalarini hosil qilish.

3-bosqich: Mustaqil ravishda o‘qib-o‘rganish va ijodiy izlanish asosida hosil qilingan amaliy ko‘nikmalarning malakalarga aylanishiga erishish.

4-bosqich Mavjud nazariy bilim, amaliy ko‘nikma va malakalarga tayangan holda kasbiy faoliyatni samarali tashkil etishga psixologik jihatdan tayyorlanish.

Pedagog tomonidan ushbu shakllarda kasbiy faoliyatning samarali tashkil etilishi uning kreativligi qay darajaa ekanligiga bog‘liq bo‘ladi.

Kreativ fikrlash har bir ijtimoiy sohada yaqqol aks etishi mumkin. O‘qituvchining ijodkorligi esa u tomonidan tashkil etiladigan kasbiy faoliyatni tashkil etishga ijodiy (kreativ) yondashuvida aks etadi.

Tahlil va natijalar (Analysis and results).

Talabalarda kreativlikni rivojlantirish ta’lim mazmunini o‘zlashtirishda talabalarning bilim saviyasi, o‘zlashtirish darajasi, ta’lim manbai, didaktik vazifalariga qarab, munosib ravishda o‘qitish jarayonini tashkil etishni talab qiladi. Bunda quyidagi pedagogik shart-sharoitlarga amal qilish lozimligi nazarda tutiladi: talabalarda kreativ faoliyatni egallash mayllarini qaror toptirish, bilish ehtiyojlarini shakllantirish va ta’lim jarayonida mustaqillikni namoyon qilish muhitini ta’minalash; talabalarda ijodiy fikrlash uchun qulay imkoniyat yaratish, talabalar tomonidan bayon qilingan turli-tuman fikrlar va g‘oyalarni bag‘rikenglik bilan qabul qilish hamda ularning o‘quv jarayonidagi faolligini ta’minalash, har bir talabada uning ijodiy fikrlashga qodirligi haqidagi ishonchni qaror toptirish, ularning ijodiy faolliklarini muntazam rag‘batlantirish; o‘quv jarayonini talaba shaxsining xususiyatlari, ehtiyojlarini va intellektual salohiyatidan kelib chiqqan holda individuallashtirish; talabalarda individual, kichik guruhlar va jamoada ishlash ko‘nikmalarini shakllantirish, ularning ijodiy imkoniyatlarini kengaytirish, ularni muammolarni hal qilishda tayyor, standart yechimlar bilan birga nostandart



yechimlar qabul qilishga undash; kreativ faoliyatni rivojlantirishning asosi bo‘lgan kognitiv bilimlarni amalda qayta ishlab chiqish va takomillashtirish imkonini beradigan interfaol mashg‘ulot shakllari va metodlarini tanlash va tatbiq etish.

Tadqiqot natijalariga ko‘ra talabalarda kreativlik qobiliyatlarini rivojlantirishda quyidagi ish shakllaridan foydalanish muhim ahamiyatga ega:

- ma’lumotlarni tahlil etish, tezkor qarorlar qabul qilish, ijodiy fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiluvchi treninglarni tashkil etish;
- tasavvurlarni va obrazli qarashlarni shakllantirishga yo‘naltirilgan ijodiy mashqlar, topshiriqlarni bajarish;
- keyslar bilan ishslash;
- guruhiy ish shakllari va debatlarni tashkil etish;
- o‘quv loyihalarini tayyorlash;
- portfoliolarni shakllantirish;
- kastinglar uyushtirish;
- to‘garaklar faoliyatini yo‘lga qo‘yish.

Talabalarda kreativlik qobiliyatlarini rivojlantiruvchi omillar:

- kreativ fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirish, kreativ faollikni shakllantirish, o‘quv jarayonini izlanuvchilik hamda muammoli tadqiqotchilik yo‘nalishlarini kuchaytirish;
- talabalarning muammolarni ijodiy yechish va yaratuvchilik faoliyatlarini rivojlantirish vaziyatlarini tashkil etish;
- talabalarning kreativ faoliyat tajribasiga kasbiy zaruriyat va istiqboldagi kasbiy faoliyat mazmunining tarkibiy qismi sifatida yondashishlariga erishish;
- talabalarning kasbiy ko‘nikma va layoqatlarini rivojlantirish jarayonini interfaol metodlar va texnologiyalar ustida ishslash asosida rivojlantirishga yo‘naltirish, ularda mustaqil ijodiy faoliyat ko‘rsatish, mustaqil bilim olish, o‘z-o‘zini tarbiyalash, o‘z-o‘zini bilish, o‘z mavqeiga ega bo‘lish, talabalarning mustaqil ishslash layoqatlarini faollashtirish, bu jarayonda ularning kreativ fikrlashlariga erishish;



- talabalarning kreativ layoqatlarini namoyon qilishlari uchun qulay ijodiy hamkorlik muhitini vujudga keltirish kabilardan iboratligi aniqlandi.

Xulosa va takliflar (Conclusion/Recommendations).

Yuqoridagilardan kelib chiqib, xulosa qilish mumkinki, talabalarning pedagogik ehtiyojlari, qiziqishlari, alohida ahamiyatga ega bo'lgan yo'nalishlarini tizimli tarzda o'rghanish, bunda ularning kreativ faoliyatni tashkil etishida uchraydigan kontrsuggestiv, tezaurus va interaksion baryerlarning bartaraf etishning samarali yo'llarini belgilash lozim.

Shuningdek, talabalarning kreativ qiziqishlari va ehtiyojlarini qondirishga xizmat qiladigan g'oyalar, konsepsiylar hamda ilg'or pedagogik tajribalar asosida o'qitish jarayonini tashkil etish kreativlikni rivojlantirishga nisbatan mazmunli-faoliyatli yondashuvni shakllantirishga xizmat qiladi. Talabalarning kreativlik ko'nikmalarini rivojlantirish asosida ulardagи ixtisoslashgan ya'ni pedagogik kreativlik kompetentligini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratish, bunda zamonaviy axborotkomunikatsiya texnologiyalari, innovatsion strategiyalar, interfaol ta'lif metodlari va texnologiyalaridan keng foydalanish maqsadga muvofiq.

Mutaxassislar ta'kidicha, oliy ta'lif muassasalarida talabalar kreativlik qobiliyatlarini rivojlantirishning reproduktiv, ijodiy-izlanish va novatorlik bosqichlari samaradorligini ta'minlashga xizmat qiluvchi ijodiy yo'naltirilgan ta'lif dasturlarini ishlab chiqish va talabalarning kreativ ko'nikma va malkalarini rivojlanishining o'zgarishini baholab borish lozim. Oliy ta'lif muassasalari pedagog kadrlarining kreativ kompetentligini uzlusiz rivojlantirishga yo'naltirilgan o'qitish dasturlarini va texnologiyalarini takomillashtirib borish, shuningdek talabalarning kreativlik qobiliyatlarini rivojlantirishga xizmat qiluvchi zamonaviy axborot-metodik ta'minotni yaratish jarayon samaradorligini oshirishga xizmat qiladi [3].

Mazkur yo'nalishdagi ishlarni amalga oshirish quyidagilarni nazarda tutadi:

1. Talabalarning ijodiy faoliyat tajribasini egallashiga yo'naltirilgan ta'lif metodlari mazmunini ishlab chiqish, bu quyidagi elementlarni qamrab oladi:



tushunish, hodisalarining yashirin mexanizmlarini anglab yetish, ularning sabab-oqibatli aloqadorligi, mazkur hodisalarining rivojlanish tarzini oldindan ko‘ra bilish qobiliyati sifatida; dalillarni anglab yetish va tahlil yetishda muammoni aniqlash va qo‘yish qobiliyati; olingan bilimlarni tadqiqotchilik va konstruktorlik vazifalariga unumdar ko‘chira olish; obrazli, belgili, mazmunli analogiyalar asosida tadqiqotchilik va konstruktorlik vazifalarini yechish; obrazlar va g‘oyalarni o‘zgartirish, ularning interpretatsiyasi.

2. Talabalarning o‘quv faoliyatlarida metodologiya va o‘quv fanini hamda uning metodlarini kuchaytirish.

3. Ilmiy bilimlarni ijodiy qo‘llash va talabalarning ijodiy faolliklarini rivojlantirish uchun asos sifatida texnik modellashtirishdan foydalanish.

4. Ta’limda yakuniy natijani ko‘zlash, nafaqat matnli vazifalarining murakkablik darjasini bilan, balki predmet mazmunining hajmi, ijodiy faoliyat tajribasining davomiyligi bilan ham belgilanadi.

Talabalarni vazifani yoki matnni yodda saqlab qolish va aytib bera olish, andozaviy vazifalarni yechish kabilar bilan bog‘liq bo‘lgan sodda ishlardan ijodiy faoliyat elementlari va mustaqil qaror qabul qilishni talab etuvchi vazifalarga jalganadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Башина Т.Ф., Ильин Е.П. Психология творчества, креативности, одаренности. – СПб.: Питер, 2009. – с.

2. Drapeau Patti. Sparking student creativity (practical ways to promote innovative thinking and problem solving). – Alexandria – Virginia, USA: ASCD, 2014. – p. 4.

3. Ibragimova G.N. Interfaol o‘qitish metodlari va texnologiyalari asosida talabalarning kreativlik qobiliyatlarini rivojlantirish: ped.f.f.d. ilmiy darajasini olish uchun yozilgan diss. Avtoreferati. -T.: 2017, 39 b.